

**TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ULARNING
KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI****Abdullayeva Nigina Xamidovna***Osiyo Xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonida muhim omillarni hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab muqobil metod va vositalardan foydalanishni ishlab chiqish*

Kalit so'zlar: *talaba, faoliyat, kasb, iqtidor, pedagog, ta'lim, tarbiya, metod, vosita*

Annotation: *The development of the use of many alternative methods and instruments, the development of education with the consideration of important factors and the formation of professional qualities in the preparation of students for professional education.*

Key words: *student, activity, profession, talent, pedagogue, education, educating, method, instrument.*

Аннотация: *Развитие использования многих альтернативных методов и инструментов развития образования с учетом важных факторов в процессе формирования их профессиональных качеств при подготовке студентов к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *студент, деятельность, профессия, талант, педагог, образование, воспитание, метод, инструмент.*

KIRISH

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan va bu masala doimo davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan faol, intiluvchan, iqtidorli, zamonaviy bilim egalari bo'lgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT texnologiyalarni o'rgatish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ham talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlarini tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining maqbul variantlarini tanlash o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, xususan, raqamli texnologiyalarni o'rgatish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda davlat ta'lim standartlarida malaka ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kompetent yondashuvdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmogda. Sababi oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun mohiyatini tinglovchilarning ehtiyojlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot texnologiyalar asosida etkazishdan iborat bo'lib qolmogda. Bu kabi o'zlashtirilgan axborotlar talabaniing amaliy faoliyat tajriba ko'nikmalarini etarli darajada rivojlantirishga imkoniyat bermaydi. Buning oqibatida talabalar ko'p ma'lumotlarni behuda to'plashi natijada ta'limning samarasi past ekanligiga duch kelish holatlari kuzatilmogda.

Aniqroq qilib aytganda tinglovchi real voqeylikdan uzoqlashib qolgandek, faqat ilgari jamlangan ma'lumotlarinigina o'zlashtirish vazifasi maqsad qilib qo'yilgandek seziladi.

Talabalarining kasbiy intellektual fazilatlariga, ularning ijodiy qobiliyatlariga va jahonda ishlab chiqarish vositalarining tobora rivojlanib borayotgan bir paytda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy sifatlarini shakllantirishiga katta talablar qo'yadi. Kasbiy tafakkur yurita olish - kasbiy fikrlashining kasbiy muhim sifatidir. Ushbu turdagi tafakkur qilish ko'nikmasining rivojlanishi hamda talabaning kelajakdagi faoliyatidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan oliy ta'limda kasbiy tayyorgarlik bosqichidagi o'quv jarayonining sifati bilan belgilanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining kabi ta'lim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda. Shuning uchun talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda tafakkurini rivojlantirishning nostandart shakllari, metodlari va vositalaridan majmuaviy foydalanish muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi O'zbekistonning iqtisodiyoti, siyosati, ijtimoiy hayotidagi jadal o'zgarishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlarida ham o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shu munosabat bilan yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ta'lim muassasalari o'z faoliyatini yangilamasdan, ish mazmuni, shakllari va usullarini o'zgartirmasdan turib rivojlana olmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ham yangi O'zbekistonimiz yoshlarini o'z fikrlash qobiliyatlarini barqarorlashtirishga qaratilayotgani ham be'jis emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar bugungi kunda davr talablari asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz yuksak vazifalardan biri bo'lmog'ligi lozimdir.

Talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirish (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash - talaba yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi lozimdir. Shunday ekan mutaxassisni o'z ustida ishlashi quyidagi hollarda ko'rinadi:

- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirishi orqali ifodalanadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishi kabi jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis nimalarga ega bo'lmog'i lozim:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olmog'i kerak.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati o'quvchilarda turmushda vujudga keladigan muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalari va tajribalari asosida hal qilish layoqatlarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiyalar davlat va jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masaladir.

Shunday ekan talabaning o'qishga bo'lgan qiziqishini kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi qoidalarni o'ziga dasturi amal qilishi lozim: 1. O'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o'quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni echish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O'quvchilarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan voz kechib pedagogik-psixologik trening-seminar, ish o'yini, mahorat darsi va turli amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish, malakaviy amaliyotning rolini oshirish, har bir talabaga o'zining pedagogik faoliyatga xos imkoniyatlari va mahoratini namoyon etishi mumkin bo'lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o'rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko'rib borish lozim. O'z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishidir. Talabalarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondosha olishlari qo'l keladi. Talabaning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham muhim amaliyat kasb etadi. O'zini o'zi tahlil qilish orqali talaba o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, talabalarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Bo'lajak mutaxassis tafakkurini shakllantirishning universal vositasi sifatida kasbiy bilimlarni dolzarblashtirish bilan bog'liq yondashuv O. V. Chukaev tomonidan taqdim etilgan.

Uning pedagogik fikrlash modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchining tafakkuri, faoliyati va refleksiya birligini ta'minlovchi pedagogik qadriyatlar, e'tiqodlar, munosabatlar tizimi (kasbiy “Men-kontsepsiya”);
- kasbiy til (pedagogik kategoriyalar tizimi, uning yordamida faoliyatni baholash va tushunish amalga oshiriladi);
- kasbiy faoliyat haqidagi bilimlar tizimi;
- xulq-atvor modellari to'plami, o'qituvchining roli.

Oldingi bayon etilgan fikrlarni biroz soddalashtirib, umumlashtirish orqali biz kasbiy ta'lim sifati tushunchalari va uni boshqarish modellarini muhokama qilish uchun asos bo'ladigan pozitsiyani qisqacha shakllantirishimiz mumkin.

Ta'limning psixologik-pedagogik tarkibiy qismining mazmuni va sifatini bir xil tizim sifatida ifodalash mumkin emas (u ilmiy kategoriyalar tizimi bo'ladimi yoki adabiy matnlar). Darhaqiqat, bu toifalar turli xil tabiat, tuzilma va shakllardagi matnlar (bilim birliklari), shuningdek, turli mezonlar va modellar mavjud bo'lgan geterogen tizimlarga misoldir.

Mazmun va sifat shakllarining har biri (ilmiy, badiiy, diniy-falsafiy, tartibga soluvchi) bir necha aspektlarda ko'rib chiqilishi mumkin: mavjudlik (ontologik yoki sinxron aspekt) va o'zgarish aspekti bo'yicha (funktional yoki diaxronik aspekt). Ikkala aspekt ham ta'lim mazmunini yangilash yoki sifatini oshirishning har bir muammosida uchraydi.

Ta'lim mazmuni va sifati sohasida ham innovatsiyalar istiqboli ta'lim muhiti haqidagi goyalarning chuqurlashishi bilan bog'liq. Biz aniqlagan strategiyalarning uchinchi (uni ijtimoiy-pragmatik yoki texnologik deb ta'riflash mumkin) birinchi o'ringa amaliy faoliyat ko'nikmalari va malakalarini qo'yadi, bu esa muloqot, motivatsiya va ijodkorlik ko'nikmalariga asoslangandir. Ijtimoiy-pragmatik strategiya ta'lim mazmunining ikkita asosiy komponentidagi bo'shliqni bartaraf etishning dastlabki maqsadiga asoslanadi: nazariypedagogika, ta'lim va didaktika nazariyasiga va amaliy, haqiqiy pedagogik tajribani umumlashtirishga asoslangan.

XULOSA

Shunday qilib, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlarni namoyon bo'ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlarni aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markovning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Talabani kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun talaba o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda talabaga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifatni aniq, xolis ifodalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To'rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari o'quv qo'llanma Toshkent -2015.-5-8 bet
2. Verbitskiy A.A., Platonova T.A. Kognitiv va kasbiy motivatsiyani shakllantirish. - M.: Oliy maktab, 1986. - 158 b.
3. Monaxov V. M. Pedagogik texnologiyani loyihalashga aksiomatik yondashuv // Pedagogika. - 2000. - No 6. - S. 26-31
4. Slastenin V.A., Rudenko N.G. O'qituvchilarni tayyorlashning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari to'g'risida // Pedagog. - 1997. - No 3. - S. 93.